

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrası**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ta'lim yo'nalishi 5141500 – “Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va  
ma'naviyat asoslari”**

**Mavzu: “O'zbekistonda jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy  
asoslarini mustahkamlanishi (1999-2012 yillar)”**

Bajardi:

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

**Iskandarov F.**

Ilmiy rahbar:

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi” kafedrası katta o'qituvchisi

**Fayziyev F.**

**Navoiy -2013**

## Kirish

### I. Jamoat tashkilotlari va uning O'zbekistonda huquqiy asoslari

#### 1.1. Jamoat tashkilotlari tushunchasi va tasnifi

#### 1.2. Jamoat tashkilotlarining O'zbekistondagi huquqiy asoslari

### II. O'zbekistondagi jamoat tashkilotlariga oid qonun hujjatlari taxlili

2.1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunining o'rni va ahamiyati

2.2. O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat tashkilotlari tizimidagi o'rni va uning huquqiy asoslari

## Xulosa

## Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

## **Kirish**

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Mustaqillik davriga kelib O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik va pirovard maqsadlaridan biriga aylandi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ozod va obod Vatan qurishning asosiy poydevori sifatida demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga doir konseptual maqsadlarni ilgari surildi.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy maqsad sifatida e'lon qilinishi – bu undagi hayot tarzi va insoniy o'zaro munosabatlarni inson manfaatlariga, o'z-o'zidan milliy manfaatlariga mosligi, har bir insonni erkinligi va huquqlarini amalga oshirishga qulay va har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berishi, bu holatni esa mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirishga bo'lgan kuchli ta'sirini e'tiborga olish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistondan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllantirish «Jamiyatni boshqarish vazifalarining aksariyati davlatdan fuqarolik va ijtimoiy o'z- o'zini boshqarish organlari qo'liga o'tishini anglatadi».<sup>1</sup>

Bizningcha mavzuning dolzarbligi qo'yidagi jixatlar bilan izoxlanadi.

Birinchidan, fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda nafaqat inson erkinligi, davlatning jamiyat uchun xizmat qilish mas'uliyatining yuksakligi, o'zini o'zi boshqarishning avj olishi kabi qadriyatlarga amal qilinadi, bu jamiyatlarda inson farovonligini har tomonlama ta'minlash sohasida ham mislsiz natijalarga erishiladi. Jahondagi mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mahsulotning o'rtacha kishi boshiga taqsimlanishida ham fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlar peshqadamlik qilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, inson siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklar bag'ridagina o'zining yaratuvchanlik qobiliyatini to'liq namoyon qila oladi. SHu bois ham mamlakatimizda «fuqarolik jamiyati asoslarini

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 183.

shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etish lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyali tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.”<sup>1</sup>

Ikkinchidan, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridan boshlangan fuqarolik jamiyati qurish islohotlari taboro chuqurlashib bormoqda. O'tgan davr ichida Prezident I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, “fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sosial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda”<sup>2</sup>.

Uchinchidan, O'zbekistonda tub o'zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o'rni asosan fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ldi. Mamlakatda jamoat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadida davlatning «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi.

To'rtinchidan, mamlakatda XXI asr boshlariga kelib «Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari» konseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI Asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. «O'zbekiston», 1997. – B. 174.

<sup>2</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr.-Toshkent: O'zbekiston, 2010, 42-b.*

Yangi jamiyat qurishning hozirgi dolzarb pallasida Prezident I.A.Karimov tomonidan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni ilgari surilishi, undagi konseptual maqsadlar yurtimizda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bir davrini boshlab berdi, “...bosib o’tgan keyingi o’n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo’llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo’ldi”<sup>1</sup>.

Demak, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida jamoat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish fuqarolarning faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruv ishlariga keng jalb qilish imkoniyatini beradi.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Bizga ma’lumki fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish fuqarolik jamiyati institutlari tizimidan o’rin oladi. Fuqarolik jamiyati tushunchasining esa XVII-XVIII asrlarda G’arbiy yevropada vujudga kelgan. Uning g’oyaviy asoschilariga biz J.J.Russo, SH.Monteske, T.Gobss, Volter kabi mutafakkirlarni ko’rsatishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida respublikamiz olimlari tomonidan ham fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo’lgan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish, ya’ni maxallalarning siyosiy va huquqiy maqomi buyicha anchagina ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va mavzuga oid kitoblar chop etildi. Xususan, respublikamiz olimlaridan D. Axmedov, Z. G’ofurov, SH. Jalilov, R. Raxmonov, N. Abdullayev, M. G’ulomov, M. Qirg’izboyev<sup>2</sup> kabi olimlar tomonidan masalaning siyosiy va huquqiy jixatlari taxlil qilingan.

Turli tadqiqotlar taxlili asosida biz bitiruv malakaviy ishimizda masalaning jamoat tashkilotlarini fuqarolik jamiyatidagi o’rni va huquqiy asoslari, ularning davlat hokimiyati ustidan nazorati, fuqarolarni ijtimoiy qo’llab quvvatlash va

---

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. *O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr. -Toshkent: O’zbekiston, 2010, 41-42-b.*

<sup>2</sup> Qirg’izboyev M. O’zini-o’zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining asosi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003, №1; G’ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. – T.: «Adolat», 2003; Raxmonov R., Abdullayev N. Mahalla: o’z-o’zini boshqarishning huquqiy kafolati. – T.: Mehnat, 1999. –72 b; Jalilov SH. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot. T.: «O’zbekiston», 2001; Axmedov D., G’ofurov Z. Mahalla noyob milliy qadriyat. – T.: O’zbekiston, 2005. - 112 b.

tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'рни va vazifalari kabi jixatlarni o'rganishga harakat qildik.

**Ishning maqsadi.** Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishida jamoat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlanishi masalasini 1999-2012 yillar oralig'ida ko'rsatib berish.

**Ishning vazifalari.** Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchalarining mazmuni va mohiyatini ochib berish;

- O'zbekiston Respublikasida jamoat tashkilotlari tizimini shakllantirilishi jarayoning bosqichlarini ko'rsatib berish;

- Jamoat tashkilotlari institutlarining mamlakatimizda huquqiy asoslarini yaratilishi jarayoni va bu soxada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni taxlil etish;

- Davlat hokimiyati ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda jamoat tashkilotlari institutlarining o'рни va rolini ko'rsatish;

- O'zbekistonda jamiyat hayotiningba'zi sohalarini boshqarish ishini jamoat tashkilotlari institutlariga o'tkazilishi jarayoning o'rganish;

- Axolini ijtimoiy muhofaza qilishda jamoat tashkilotlari institutlarining o'рни va rolini ko'rsatish;

- Jamoat tashkilotlari bilan bog'liq huquqiy normalarning tahliliga e'tiborni qaratish.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish qismi, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Hajmi betdan iborat.

## **I. Jamoat tashkilotlari va uning O'zbekistonda huquqiy asoslari**

### **1.1. Jamoat tashkilotlari tushunchasi va tasnifi**

O'zbekistonda keyingi o'n yilda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. SHuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. CHunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, "bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir".

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchayib bormoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbida va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Jamiyat va uning a'zolari davlatga nisbatan ustunlikka ega bo'lishi fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir. Agar "jamiyat" tushunchasini makonu zamonda mavjud bo'lgan, turmush tarzi va manfaatlari mushtarak bo'lgan insonlarning o'zaro aloqadorligini ifodalovchi birlik deb tushunsak, "fuqarolik jamiyati" esa ana shunday jamiyatning rivojlanishida ma'lum sharoitlar ostida qaror topadigan uning yuqori bosqichidir. Agar "jamiyat" tushunchasi tarkibiga, masalan, davlatning ham kirishini unutmamak va ayni vaqtda

“fuqarolik jamiyati” tushunchasi tarkibida davlatning mavjud emasligini anglasak, “jamiyat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalarining teng hajmli emasligini, ularning turlicha ma’no kasb etishini ko’rishimiz mumkin. *Fuqarolik jamiyati* – bu yuksak fazilatlarga ega bo’lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonun ustuvorligi ta’minlanadi, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo’ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatlarida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o’z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning *jamoatchilik nazorati* o’rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o’tish orqali ro’y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” dasturi asosida davlatning ayrim vakolatlarini fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish jarayoni kechmoqda.

SHu o’rinda fuqarolik jamiyati to’g’risidagi tasavvurlar rivojiga qisqa nazar solaylik. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi ilk bor Qadimgi Gretsiya va Rimda vujudga kelgan. Fuqarolik jamiyati haqidagi dastlabki fikrlar Aristotelning “Siyosat” asarida yoritilgan. Uning fikriga ko’ra, insonning erkin yashashi uchun jamiyatda qonunlar ustuvor bo’lishi lozim. SHu bilan birga, ana shunday ustuvor qonunlar adolatli bo’lishi ham kerak. Bu g’oyalar XVII asrga kelib yanada rivojlandi. Jumladan, ingliz faylasufi T. Gobbs asarlarida rivojlantirildi. XVIII asrda ro’y bergan Buyuk fransuz inqilobi bois “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”ning e’lon qilinishi orqali fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Kant, Russo, Gegel singari taniqli mutafakkirlarning ilgari surgan fikrlari fuqarolik jamiyatining keng mohiyati va yangi qirralari ochib berdi.



SHarqda fuqarolik jamiyati tushunchasiga nisbatan o'ziga xos talqinlar mavjud. Bu odob-axloq, madaniyat va huquqning uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, qadimiy yodgorlik bo'lmish "Avesto"da kishilarning birgalashib yashashi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloq normalariga tayanishi kabi g'oyalar oldinga surilgan. Abu Nasr Forobiyning asarlarida, xususan, uning "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni boshqarishda adolatli qonunlarga tayanish lozimligi uqtiriladi. Forobiyning yozishicha, fozillar shahrining boshlig'i tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi, xususan, "u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur"<sup>1</sup>. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Amir Temur kabi buyuk sharq donishmandlari tomonidan ham ilgari surilgan.

Fuqarolik jamiyati tushunchasini bugungi zamonaviy talqini uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsa-da, u to'laligicha milliy an'analar va jahondagi ilg'or davlatlar tajribasining sintezi sifatida, ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy-huquqiy faollikning uyg'unligi sifatida dunyoga kelmoqda. Fuqarolik jamiyati uzoq muddatni oladigan jarayondir.

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Fuqarolik jamiyati keng ma'noda jamiyatning shunday qismini bildiradiki, bu qismda davlat va uning tuzilmalari bevosita qamrab olinmagan bo'ladi. Fuqarolik jamiyati tor ma'noda, ya'ni o'z ma'nosida huquqiy davlat bilan bevosita bog'liq. SHu ma'noda, fuqarolik jamiyati huquqiy davlatsiz mavjud bo'lishi mumkin emas va aksincha, huquqiy davlatni fuqarolik jamiyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyatida davlat organlarida bo'lgani singari, biri ikkinchisiga bo'ysunadigan, ya'ni vertikal (tik) munosabatlar emas, balki gorizontalar (yotiq) munosabatlar yetakchilik qiladi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatida erkin va teng huquqli hamkorlik hukmronlik qiladi.

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 160-b.

Fuqarolik jamiyatining ichki tuzilmasida mazkur jamiyat elementlarining xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Hozirgi zamon fuqarolik jamiyatining tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tashkiloti (1), fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tashkiloti (2) va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tashkiloti (3). Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagicha tasniflash mumkin .

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, xususan, ular turlicha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolarning faolligini oshiradi, mamlakatda ro'y berayotgan turli demokratik o'zgarishlar ko'lamini keng yoyishda muhim omil sanaladi, jamoatchilik nazoratini yuzaga keltiradi, huquqiy ong va madaniyatni shakllantiradi, huquqiy davlat barpo etishda katta hissa qo'shadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini-o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlariyu manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim, asosiy institutlaridan biriga aylandi. SHunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlar mazmun va mohiyatini chuqur anglash, ularning demokratik fuqarolik jamiyatining muhim hamda asosiy institutlaridan biri ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. SHuningdek, demokratik jamiyat tushunchasi to'g'risidagi tasavvurlar nodavlat notijorat tashkilotlarni chuqur idrok etishga imkoniyatlar beradi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi (2002 yil 29-30 avgust) mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga doir ma'ruzasi bilan so'zga chiqdi. O'z nutqi bilan Prezidentimiz adolatli demokratik jamiyat qurishning konseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Xususan, Prezident I.A. Karimovning ushbu ma'ruzasida mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab berildi: «Beshinchi ustuvor yo'nalish

fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. YOki boshqacha qilib aytganda, bu — «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim».

Mamlakatda XXI asr boshlarida «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo'nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

- birinchidan, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma'naviyati va bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ularning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

- ikkinchidan, jamiyat a'zolarining manfaatlari uyg'unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

- uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi, yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

- to'rtinchidan, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

- beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta'sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

- oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan

jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, ya'ni davlat hokimiyati tasarrufida, asosan konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot, mudofaa qobiliyatini ta'minlash inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat ekinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qondirish ko'zda tutilmoqda.

SHuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomala bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. SHuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlarini ham, asosan, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun avvalo manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar tushunchasini o'rganish talab etiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish, turli qatlamlar va guruhlarining siyosiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini uyg'unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati demokratik fuqarolik jamiyati takomillashib borgani sayin yanada kuchaydi.

Ma'lumki, manfaatlar — individlar va guruhlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir. O'z vaqtida Tomas Gobbs «Hokimiyatga intilish inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning dushmanligi—shaxsiy manfaatlarning mantiqiy natijasidir», deb ko'rsatgan edi. Gegel esa: «Inson o'z

ozodligini hayotga tatbiq qilishi lozim, bu uning bosh manfaatini tashkil qiladi, uning faoliyati shundan tashkil topadi... Manfaat — men faqat harakatlanuvchi, mening harakatlanishimning sub'ektiv irodasidir, shuningdek, manfaatli bo'lish shunga tengki, men harakat qilayotganimda men ishtirok etishim lozim», deb ko'rsatgan edi.

Fuqarolarning ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib nodavlat va notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg'unlashuvi ro'y beradi. SHaxsning qanday ijtimoiy guruhga a'zoligi uning manfaatlaridan qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi, u o'zi uchun muhimroq bo'lgan ijtimoiy guruhga a'zo bo'ladi. Ana shunday ahamiyatli guruhlar ta'siri ijtimoiy tuzilmalar irodasini ifodalaydi. Bunday guruhlar manfaatlarini hukumat doimo etiborga olishi lozim.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va an'analaridan kelib chiqib, turlicha nomlanadi. Masalan, AQSHda manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari deb atalsa, G'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jamg'armalar kabi nomlar bilan ataladi. G'arb sotsiologiyasida esa, bu tashkilotlar manfaatlar guruhlari nomi bilan keng tarqaldi. O'zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar nomi bilan keng ommalashdi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarning ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni yetkazib berib turishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning ixiyoriy birlashmalaridir. Ular

siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasiz bo'lishi lozim. Manfaatlari guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini yetkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi.

SHuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatining muhim xususiyatlarini tahlil qilish nodavlat notijorat tashkilotlar, guruhlar, turli birlashmalar, tashkilotlarning faoliyati va harakat doirasini o'rganmay turib, amalga oshmaydi. Lekin klassik demokratik nazariyalarda siyosiy guruhlarining maqsadlari ma'lum bir siyosiy yo'lni amalga oshirish uchun hokimiyatni egallash hisoblangan bo'lsa, manfaatlar guruhlarining maqsadi siyosatga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir, deb ifodalangan. Siyosiy partiya asosan turlicha siyosiy manfaatlar, ko'rsatmalar va yo'nalishlarga ega bo'lgan kishilarni birlashtirsa, manfaatlar guruhlarini ko'proq o'z a'zolari uchun xos bo'lgan manfaatlar, asosan bir yoki bir necha muammolarni hal qilishga o'z diqqat-e'tiborini qaratadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar samarali raqobat yo'llarini va siyosiy jarayonda ommaviy tarzda qatnashish usullarini shakllantiradi. Ular o'z manfaatlarini himoya qilgan holda davlatning u yoki bu sohadagi siyosati harakatlarini muvozanatda saqlab turish imkoniyatlariga ega bo'ladi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar har bir alohida fuqaro (shaxs)ga, siyosiy yetakchiga ta'sir o'tkaza olish va unga siyosatda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning funksiyalari turli-tumandir. Lekin ularning asosiy funksiyalaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini artikulyatsiya qilishdir. Manfaatlari guruhlarini individlarning turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarning bir tizimga keltiradi, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilot harakat dasturining shakllanishiga yordam beradi. Guruhlar a'zolarining ayrim olingan manfaatlarini siyosiy jarayonlarga manfaatdor guruhlar vositasida aniq, bir tizimga solingan

talablar tarzida tatbiq etiladi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko'plab ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida ma'lum bir munosabatlar tizimini o'rnatish)ni ham amalga oshiradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a'zolarining keng qatlamlari qarashlarini ifoda eta oladigan manfaatlar tanlab olinadi va ularni amalda qondirishning zaruriy chora-tadbirlari ko'riladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatlari bir tizimga solinib, ularning keng jamoatchilikning xohish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga yetkazilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa bunda ko'plab manfaatlar guruhlari va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida kelishuv va muvofiqlashuv ro'y beradi.

SHuningdek, manfaatlar guruhlari faoliyatida keng ishtirok etish uning a'zolari huquqiy va siyosiy madaniyatlarining shakllanishiga, demokratik jamiyat sharoitlarida jamoat ishlarida faol ishtirok etishlarini rag'batlantirishga amaliy tajriba sifatida katta yordam beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar ichida faqat siyosiy partiyalargina siyosiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanishi mumkin. Siyosiy partiyalarning davlat bilan xalq ommasi o'rtasidagi munosabatlarida turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning siyosiy manfaatlarini va irodalarini ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy manfaatlar deb, ijtimoiy faoliyat sub'ektlarning o'z holatini siyosiy kurash vositasida barqarorlashtirish hamda yaxshilashning ob'ektiv va sub'ektiv imkoniyatlarini anglashga aytiladi. Siyosiy manfaatlar sub'ektlari asosan ijtimoiy qatlamlar, individlar va tashkilotlardan iboratdir. Ijtimoiy qatlamlar sinfiy, etnik, kasbiy, hududiy, demografik, mehnat jamoasi ko'rinishlariga ega bo'ladi. Tashkilotlar esa davlat, jamoat birlashmalari, konfessiyalar, ijtimoiy harakatlar shakliliga ega bo'ladi. Siyosiy manfaatlar harakteri siyosiy tuzumga nisbatan turlichadir. Siyosiy manfaatlar tuzumni o'zgartirish, uni modernizatsiya qilish, shuningdek, mavjud tuzumni barqaror saqlashga yo'naltirilishi mumkin. Ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan esa manfaatlarning harakteri progressiv, reaksion va mo''tadil

shakllarda ifodalanadi.

Siyosiy manfaatlar harakterini ifodalash uchun'odatda siyosiy yo'nalishlarga nisbatan «ultraso'l», «so'l», «so'l mo''tadil», «mo''tadil», «o'ng mo''tadil», «o'ng va ultra o'ng» tushunchalari ishlatiladi. Tashkilotlarga nisbatan esa «davlat», «siyosiy partiya», «jamoat tashkilotlari», «jamoat harakatlari» va individlar tushunchalari qo'llanadi.

Hozirgi davrda AQSHda tadbirkorlar manfaatlarini ifoda etuvchi manfaatlar guruhlari uyushmalarga a'zo bo'lib, Mustaqil Biznes Milliy federatsiyasiga birlashganlar. Germaniyada esa Nemis kasaba uyushmasi federal birlashmasi, Nemis ish beruvchilari uyushmasi federal birlashmasi, Germaniya sanoatchilari federal birlashmasi, Soliq to'lovchilar uyushmasi, Demokratik olimlar uyushmasi, Nemis sport uyushmasi kabi bir qancha manfaatlar guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Hududay, mintaqaviy va federal darajalarda ham hunarmandlar, talabalar, vrachlar, madaniyat arboblari, turli iste'molchilar uyushmalari va tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Germaniyada 4 - 5 ming atrofida ana shunday birlashmalar faoliyat yuritmoqda. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfaatlar guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQSHda 1 mln.dan ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ularda Amerika aholisining 7,8 % xizmat qiladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari hukumatlari muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga tayanadilar. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladilar. Bu ko'rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir.

Manfaatlar guruhlari hukumatning siyosiy strategiyasini shakllantirishga ham katta hissa qo'shadi. Ularning siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilishi partiya a'zolarining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshiradi hamda ichki intizomni mustahkamlaydi. Buning sababi shundaki, odatda manfaatlar guruhlari yetakchilari u yoki bu partiyaning rahbar organlarida ta'sirchan



mavqelarni egallab turadilar.

Keyingi o'n yilliklar ichida ijtimoiy-siyosiy hayotda nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Partiyaviylikka intilishning susayishi sababli ko'plab kishilar manfaatlar guruhlarini tomon og'a boshladilar. Ba'zi siyosiy kuzatuvchilarning fikricha, manfaatlar guruhlarining o'sishi shu darajada tezlashdiki, bu guruhlar endi partiyaning ba'zi funksiyalarini o'z zimmasiga olmoqda. Ba'zi ta'sirchan manfaatlar guruhlarini esa o'zlarining siyosiy harakat qo'mitalarini tashkil etayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu qo'mitalarning siyosiy hayotdagi o'rnini ham kuchayib bormoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning hokimiyatga daxldor maqsadlari, parlament vositasida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolari faqat partiyalar bilan hamkorlikda bajarilishi yoki hal bo'lishi mumkin. O'z navbatida, siyosiy partiyalarning ham manfaatlar guruhlarisiz saylov kampaniyalarida muvafaqiyatga erishishi, jamiyatni anglashi qiyin kechadi.

Demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri, bu - ko'ppartiyaviylik bilan bir qatorda o'z a'zolarining yuksak siyosiy madaniyatiga tayangan manfaatlar guruhlarining mavjudligi, ularning jamiyat va davlatning barcha institutlari bilan o'zaro teng huquqlilik asosida faol munosabatda bo'lishidir. Siyosiy partiyalar o'z o'rnida nodavlat notijorat tashkilotlarning turli manfaatlarini birlashtiradi, o'zida ifoda etadi. SHu bilan birga, o'z manfaatlarini yo'lida bu guruhlardan foydalanadi va hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki yillardan boshlab mamlakat prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarini demokratik tamoyillar asosida isloh etishga muhim e'tibor berib kelmoqda. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov mamlakat taraqqiyoti to'g'risida so'zlar ekan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini quyidagicha ifodalaydi: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan

kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etidan iboratdir».

Mustaqillik davridagi demokratik islohotlar natijasi o'laroq, 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan barcha qonunlar majmuasi mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish orqali fuqarolik jamiyatni qurishga qaratilgan. Ayniqsa, Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning 2-moddasiga binoan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishiga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy prinsiplari quyidagicha ifodalandi:

— qonun ustuvorligini, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasida muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash;

— xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari asosida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash;

— siyosiy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini izchil erkinlashtirish;

— nodavlat notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustahkamlanishi hamda rivojlantirilishi uchun kafolat va sharoitlarni ta'minlash;

— fukarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurishning huquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning g'oyalari, maqsadlari, ruhi, uning har bir

qoidasi BMT ning «Inson huquklari umumjahon Deklaratsiyasi», asrlar mobaynida ilg'or va yetakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avdoddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan milliy va sharqona davlat hamda jamiyatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning ham bevosita ishtirok etishi an'analarini o'zida mujassamlashtirdi.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida uning muhim institutlaridan biri bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida «Jamoat birlashmalari» deb nomlangan bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko'ppariyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratadi. Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritildi. Endi ular demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishni ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun teng ho'quqli imkoniyatlar yaratib boradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarini jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi», 34-moddadagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas», degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini ta'minlashga doir huquqiy prinsipning e'tirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildiradi. O'zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning «Saylov tizimi»

deb nomlangan bobidagi 117-moddasiga binoan, respublika «fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar».

Hozirgi davrga kelib, O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonuni (1991 yil fevralda qabul qilingan, 1997 yilda qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan), O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (1992 y. iyul), O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonuni (1996 y. dekabr), O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» gi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may) kabilar bilan muvofiqlashadi.

Oliy Majlis tomonidan 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga binoan «Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatning asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy, shuningdek, ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi».

O'zbekistonda amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlariga quyidagi huquqlar berilgan:

—o'z a'zolari va qatnashchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

—ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish,

davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

—davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

—o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;

—ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

—ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

—o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

—o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish;

—qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

## **1.2. Jamoat tashkilotlarining O'zbekistondagi huquqiy asoslari**

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini** tilga olish o'rinlidir. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, “mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilishi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi”<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi prinsiplar

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, - 2010. – B.

mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi".

Fuqarolar yig'ini birinchi marta o'zini o'zi boshqarish organi sifatida Konstitutsiyada e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ushbu huquqiy norma belgilandi:

"SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi".

1993 yil 2 sentyabrida qabul qilingan **"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun** qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy holatini belgilab berdi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – bevosita fuqarolar tomonidan saylanadigan organlardir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xizmat qilayotgan qonunlardan quyidagi ba'zilarini tilga olishimiz mumkin: **"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun**, **"Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun**, **"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun**, **"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun**, **"Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun**, **"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun**, **"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun**.

Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy


munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasining yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. YUqoridagilar bilan birga, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug'dirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 34-moddasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.



SHu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. SHu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat



birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi”<sup>1</sup>.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta‘rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo‘yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo‘yildi<sup>2</sup>.

Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir qator o‘zgartishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga binoan, ular o‘zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab qo‘yildi.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo‘lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarining ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo‘ldi. SHu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta‘minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo‘yildi.

So‘nggi yillarda **“Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonun** va **“Homiylilik to‘g‘risida”gi Qonun**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori** va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vositasini o‘tamoqda(2.5.2-rasm).

---

<sup>1</sup> Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 40-bet.

<sup>2</sup> Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4. –76-modda

Respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining **“Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qo'shma qarori** muhim ahamiyat kasb etdi. SHuni ham aytish kerakki, Prezidentimiz o'z ma'ruzasida ta'kidlaganidek, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi va Parlament komissiyasi tashkil etilgan. Bu ikki tuzilmaning faoliyati ham samarali kechmoqda. Masalan, faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik institutlari taqdim etgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Jamoat fondi tomonidan 11 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Ўзбекистонимиз босиб ўтган кейинги ўн йиллик давр аҳолимизнинг кенг қатламлари қўллаб-қувватлайдиган турли хил фуқаролик жамияти институтлари, нодавлат нотижорат ташкilotларнинг жадал шаклланиши ва ривожланиши даври бўлди.

*Ислом Каримов*

Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan Parlament komissiyasi o'z tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar moliyaviy tuzilmalarning mas'ul xodimlarini birlashtirgan. Mazkur komissiya fuqarolik institutlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni ochiq, aniq va oshkora yo'naltirishni, bu mablag'larni demokratik asosda taqsimlashni amalga oshiradi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining soni 5100 dan ortiqdir. Agar bu ko'rsatkichni 2000 yildagi holat bilan qiyoslasak, ularning soni ikki yarim baravarga ko'payganligini ko'ramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari tizimida markaziy o'rin tutadi. SHuning uchun ular faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqilligini to'la ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **“Nodavlat notijorat tashkilotlari**

**faoliyatining kafolotlari to'g'risida”gi Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad quyidagilarda ifodalanadi:

- NNTlarini yanada rivojlantirish;
- ularning mustaqil ish yuritishini ta'minlash;
- ularning chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ular faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- ular faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini “*uchinchi sektor*” deb ham ataydilar. SHu o'rinda aytish kerakki, “birinchi sektor” deyilganda davlat va “ikkinchi sektor” deyilganda tijorat sektori (yoki shaxsiy sektor deb ham atashadi) nazarda tutiladi. Respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlariga oid milliy assotsiatsiya uyushmasi mavjud.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati va mazmuni u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo'nalishlarida yorqin ifodalanadi. Jamoat tashkilotlarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'lishi shubhasiz.

Jamoat tashkilotlarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish mumkin:

**Birinchidan,** fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar tamoyillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

**Uchinchidan**, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning integratsiyalashuviga erishish;
- ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirish, mehnat bozorini takomillashtirish;
- jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy voqelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funksiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri – mahallaning o'rni beqiyosdir. Mahalla – bu sharqona “demokratiya darsxonasi”. O'zbekistonda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. “Mahalla” so'zi arabcha “mahallun” so'zidan olingan bo'lib “joy”, “hudud” ma'nolarini bildiradi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog'liq ko'p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab

chiqildi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Bu saylov demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'rni beqiyosdir. Chunki boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz (2.5.3-rasm).

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o'zining yuksak mavqeiga ega. Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – *mahalla* faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan taklifni ilgari surar ekan, bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib

o'tgan qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining ta'minlanishini amalda keng va to'la ro'yobga chiqarish maqsadida tashkil etilgan va shu yo'lda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi bir qator milliy institutlar va tashkilotlar qatorida fuqarolik jamiyati institutlarining yanada kengroq tarkibini yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun" va "Nuroni" jamg'armalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlari samarali faoliyat yuritmoqda. Biroq shu va shunga o'xshash fuqarolik institutlarining faoliyatini yanada jonlantirish va rivojlantirish hozirgi kunning o'ta muhim vazifalaridan biridir. Bunday dolzarb vazifaning bajarilishi yo'lida bir qator amaliy ishlar qilindi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini va ahamiyatini oshirishga hissa qo'shayotgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Biroq bu yo'lda qilinadigan ishlar hali talaygina. Chunki bunday vazifalarning dolzarb ahamiyat kasb etishi hech kimga sir bo'lmagani holda ularning so'zsiz ijobiy yechimi hayotiy zaruriyatdan o'zga narsa emas. Chunki mohiyat e'tibori bilan fuqarolik jamiyati davlatni va uning organlari faoliyatini nazorat qiladi. SHuning uchun ham u zarurdir. Bu zarurat ma'lum asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina o'z hayotiy ifodasini topishi mumkin. Jamoatchilik nazorati kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, iste'molchilarning uyushmalari va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular xalqning davlat hokimiyati bilan o'zaro muloqotini ta'minlab beruvchi "ko'prik"dir. Bunday

ko'priknining mavjud bo'lishi va uning yaxshi taraqqiy etishi demokratik, huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan jamiyat uchun juda muhim vazifa, chunki xalqning davlat hokimiyati bilan o'zaro muloqotining yo'lga qo'yilishi demokratiya uchun asosiy omil hisoblanadi. Lekin bunday muloqotning yo'lga qo'yilishi ancha qiyin masala. Bu borada davlatning ham, jamoatchilikning ham faolligi zarur. Mamlakatimiz rahbarining ilgari surgan takliflari ana shunday zaruriyatning davlat tomonidan amalga oshirilayotgan hayotiy ifodalaridan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti ilgari surgan takliflardan biri – bu **“Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunni** qabul qilish taklifi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor. Ushbu qonunning qabul qilinishi jamoaviy mehnat nizolarini hal etishga hissa qo'shadi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi, xodimlarning mehnatga doir huquqlarining samarali kafolatlanishiga xizmat qiladi.

“O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida” Qonun qabul qilinishi kerak. Bu qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish bo'lishi lozim. Taklif etilayotgan qonunda quyidagilar belgilab qo'yilishi darkor:

- jamoatchilik nazoratining turlari;
- jamoatchilik nazoratining shakllari;
- jamoatchilik nazoratining sub'ektlari;
- jamoatchilik nazoratining predmeti;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari;
- mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlari va boshqalar.



Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalardan biri – inson huquqlari va erkinliklarining samarali ta'minlanishi masalasidir. SHu munosabat bilan **Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish** dolzard ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalariga alohida mas'uliyat bilan yondashish lozimligini uqtirish bilan birga bu vazifaning qanday tarzda nazoratga olinishini ham ko'rsatib beradi. Bunda tegishli organlarning inson huquqlari sohasida himoyani qanchalik yo'lga qo'yganini aniqlash maqsadida jamoatchilik monitoringining amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Dastur aynan ana shu sohadagi chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi lozim.

**O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga** jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

SHu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish lozim:

- sog'liqni saqlash masalalari;
- atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari. Bu sohada nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va o'rnini belgilab beruvchi **“Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonun** loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish kerak.

- aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari;
- katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizning hozirgi taraqqiyotida fuqarolik jamiyati institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini

shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha qo'ygan maqsadlarimizga yetishishda hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatlarini amalga oshirishda *ekologik nazorat* muhim o'rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmning ushbu funksiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Ekologik nazoratning maqsadlari ekologik xavfsizlikni ta'minlash xo'jalik yoki boshqa faoliyatning inson hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish hamda bartaraf etishdir. Ular turli tashkiliy-huquqiy usullar bilan amalga oshiriladi. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi: atrof tabiiy muhit hamda uning alohida ob'ektlarining holatini kuzatib borish; atrof muhitni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tadbirlarning bajarilishini tekshirish va umumlashtirish; ekologik qonunchilik normalari va talablarining ijrosini tekshirish; yuridik va jismoniy shaxslar yuritadigan ekologik zararli faoliyatning oldini olish, cheklash, to'xtatib qo'yish hamda tugatish yo'li bilan ekologik zararli faoliyatning oldini olish va uni baholash; tabiatdan maxsus foydalanish litsenziyalarida (ruxsatnomalarida), shartnomalarda aytib o'tilgan shartlarning bajarilishini tekshirish va litsenziya berish; ekologik qoida-talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash.

Ekologik nazorat ob'ektlari nuqtai nazaridan jamoat tashkilotlarining ekologik nazoratini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) atmosfera havosini muhofaza qilish;
- 2) yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish;
- 3) suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish;
- 4) o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish.

Ekologik nazoratning maqsadlari hamda vazifalari atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi davlat funksiyasining umumiy vazifalariga hamohangdir. SHu bilan birga, ekologik nazorat ob'ektlari, shakllari va usullari o'ziga xos jihatlarga egadir.

SHuningdek, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## **II. O'zbekistondagi jamoat tashkilotlariga oid qonun hujjatlari taxlili**

### **2.1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunining o'ni va ahamiyati**

"Inson huquqlari to'g'risida"gi umumjaxon deklaratsiyaga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunida fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'yilgan.

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

O'zbekistonda ushbu qonunga ko'ra siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi. Ushbu Qonun tijorat maqsadlarini ko'zlaydigan yoxud boshqa korxonalar va tashkilotlar foyda (daromad) orttirishiga ko'maklashadigan kooperativ tashkilotlarga hamda boshqa tashkilotlarga, diniy tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibi boshqa Qonun hujjatlari bilan belgilanadigan o'zga organlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunlari jamoat birlashmalarining huquqiy holati asoslarini belgilab beradigan ushbu Qonundan, Qoraqalpog'iston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi

Qonunidan, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'rvonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda kuch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi. Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslarga demokratik usulda hal etish bahonasi bilan tazyiq o'tkazishga bo'lgan har qanday urinishga Qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi.

Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko'radilar.

Fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning huquqlari va erkinliklarini cheklash yoki unga imtiyozlar berish uchun, shu jumladan davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki Qonunda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo'la olmaydi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, shuningdek mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlar jamoat birlashmalari apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

Davlat jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq ular o'z ustavlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari tashkilotlarining tadbirlari ular a'zolarining (qatnashchilarning) asosan ishdan bo'sh vaqtida va mazkur birlashmalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalari manfaatlariga daxldor masalalar qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda tegishli jamoat birlashmalari ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda davlat idoralari va xo'jalik tashkilotlari tomonidan hal qilinadi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun jumhuriyat hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari jumhuriyat jamoat birlashmalariga kiradi. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak.

Viloyat, nohiya, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun nohiya (shahar) hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari nohiya (shahar) jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati posyolka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari posyolka, qishloq jamoat birlashmalariga kiradi.

Zarurat paydo bo'lgan hollarda viloyatlararo va nohiyalararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ittifoqlari ushbu Qonunda jamoat birlashmalari uchun belgilab qo'yilgan tartibda tuziladi, amal qiladi va o'z faoliyatini to'xtatadi.

Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis s'ezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari) bo'ladilar. Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari jumhuriyat siyosiy partiyalarining a'zolari bo'lishlari mumkin.

Bir siyosiy partiyaning a'zosi ayni vaqtda boshqa siyosiy partiyaning a'zosi bo'la olmaydi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko'zda tutilgan hollarda jamoa a'zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoatlari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmasining ustavida quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:

- 1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;
- 2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud;
- 3) jamoat birlashmasi a'ziligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro'yxatda qayd etiladigan a'zolarga ega bo'lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi;
- 4) jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari;
- 5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati;
- 6) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlarining mablag'lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan ta'minlanish manbalari;

Jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a'zolari tomonidan imzolangan va shu a'zolar har birining familiyasi, ismi,



otasining ismi, tug'ilgan yili, istiqomat joyi ko'rsatilgan ariza topshiriladi. Arizaga ustav, ustavni qabul qilgan ta'sis s'ezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilish protokoli, ushbu Qonunning 6 va 8-moddalari talablari bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa materiallar ilova qilinadi.

Ustavni ro'yxatga olish haqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab ikki oy muddatda ko'rib chiqiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o'zgarishlar, qo'shimchalar ham ustavlarni ro'yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro'yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalari ustavlarini ro'yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro'yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasi yoki uning tashkilotlari (idoralari) ularning ustavlari ro'yxatga olingan kundan boshlab ushbu Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar va grajdanlik qonunlariga muvofiq huquqiy shaxs deb tan olinishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalarining, ularning bo'linmalarining filiallari, shu jumladan ommaviy harakatlari va ularning tarmoq bo'linmalarining, shuningdek jumhuriyat va mahalliy jamoat birlashmalari (shu jumladan ommaviy harakatlarning) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning joylaridagi idoralarida o'z ustavlarini ro'yxatdan o'tkazmagan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Agar jamoat birlashmasining ustavi ushbu Qonunning 3, 4 yoki 10-moddalari qoidalariga zid bo'lsa, yoxud ilgari xuddi shu nomdagi jamoat birlashmasi ro'yxatga olingan bo'lsa, jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olishni rad etish mumkin.

Ustavni ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda bu haqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko'rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin va bu ish O'zbekiston Respublikasi grajdanlik protsessual qonunida ko'zda tutilgan tartibda qarab chiqiladi.

Xalqaro, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, mahalliy jamoat birlashmalari ustavini ro'yxatdan o'tkazish ishi ustidan esa — tegishli viloyat, Toshkent shahar sudiga shikoyat qilish mumkin.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o'z timsoliga, bayrog'iga va vimpeliga ega bo'lishi mumkin.

Jamoat birlashmalarining timsollari ustavga muvofiq, ularning rahbar idoralari tomonidan tasdiqlanadi. Jamoat birlashmalarining timsollari va vimpellari ushbu Qonunning 3-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan maqsadlarni targ'ib etishga xizmat qilmasligi kerak.

Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamoat birlashmalarining faoliyati ularni qayta tashkil etish (qo'shilish, birlashish, ajralish) yoki tugatish yo'li bilan to'xtatilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ularning s'ezdlari (konferensiyalari) yoki umumiy yig'ilishlari qarori bilan qaytadan tashkil etiladi. Jamoat birlashmalarini qayta tashkil etgandan so'ng yangidan tuzilgan jamoat birlashmasining ustavi ushbu Qonunning 11-moddasida ko'zda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi s'ezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilish qaroriga muvofiq, yoxud ushbu Qonunning 22-moddasida ko'zda tutilgan asoslarga muvofiq va tartibda tugatiladi.

S'ezd (konferensiya) yoki umumiy yig'ilish qaroriga muvofiq tugatilgan jamoat birlashmasining mol-mulki uning ustavida ko'zda tutilgan maqsad yo'lida sarflanadi.

Siyosiy partiyaning faoliyatini tugatish yoki to'xtatib turish «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Ommaviy jamoat harakatlari siyosiy yoki o'zga maqsadlarni ko'zlaydilar hamda ularning ro'yxatga olingan a'zolari bo'lmaydi.

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish idoralarida lavozimni egallab turgan shaxslar o'z xizmat faoliyatida qonun talablariga amal qiladilar va

siyosiy partiyalar hamda siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ommaviy jamoat harakatlarining qarorlari bilan bog'liq bo'lmaydilar.

Kasaba uyushmalari davlat idoralari, xo'jalik tashkilotlari, kooperativ va o'zga jamoat birlashmalari bilan o'zaro munosabatlarda kasaba uyushmalari to'g'risidagi amaldagi qonunlarga muvofiq kasaba uyushmasi a'zolarining ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi manfaatlarini ko'zlab ish olib boradi va ularni himoya qiladi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining faqat yakka tartibda ro'yxatga olinadigan a'zolari bo'ladi.

## **2. O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat tashkilotlari tizimidagi o'rni va uning huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati tarkibida insoniyat ma'rifiy taraqqiyotining uchinchi ming yilligiga qadam qo'ydi. Nurli istiqbolga intilayotgan xalqimizning xohish-irodasi ajdodlardan qiyos olib va avlodlarga munosib meros sifatida qoldirish uchun adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etishga qaratilgan. Mazkur maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar bugungi kunda o'zining sezilarli samarasini bermoqda.

Fuqarolik jamiyatidagi mavjud manfaatlarini qanoatlantirish hamda ro'yobga chiqarish uchun tegishli tashkiliy tuzilmalar va zamonaviy demokratik institutlar shakllanmoqda. Fuqarolik jamiyatining ichki tuzilishini tasniflar ekanmiz, aynan ijtimoiy sohadagi manfaatlarini ifodalovchi tuzilmalar qatoriga nodavlat notijorat tashkilotlar kiritilganini e'tiborga molik hol deb e'tirof etish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nodavlat notijorat sektori faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratildi. Davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining ham huquqiy, ham iqtisodiy asoslari kafolatlab berildi. Bu esa yillar davomida respublikada nodavlat notijorat tashkilotlar sonining ortishiga

va jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga o'z hissasini qo'shishiga imkoniyat yaratdi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek: "Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda aholining turli ijtimoiy guruhlari va keng qatlamlari manfaatlarini ifoda etadigan mustaqil va barqaror nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi"<sup>1</sup> degan teran ma'noli fikrlari yuqoridagi mulohazalarning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi ancha tez shakllantirilmoqda, ularning soni va sifati ortmoqda, turlari va ixtisoslashishlari kengaymoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlangan demokratik davlatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarini ta'minlashda davlat organlari va tijorat tuzilmalarining sherigi deb ataluvchi o'rnini yanada dadil egallamoqdalar. O'z mahallalarida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashdan tortib to ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi yirik miqyosli davlat va xalqaro loyihalarda ishtirok etishgacha, manfaatlari bo'yicha birlashish, jamiyatda muayyan ijtimoiy va kasbiy qatlamlarning qonuniy huquqlarini himoya qilishdan mamlakatimizning ochiqligi, umumjahon insoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish maqsadida nodavlat darajada xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashgacha bo'lgan juda keng sohalar – bularning hammasi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat sohasidir.

Bugungi kungacha bir qator olimlar tomonidan jamoat birlashmalarining alohida shakllari, masalan: siyosiy partiya, diniy tashkilotlar va boshqalar bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan. Lekin aynan nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o'rnini va bu borada o'z yechimini topishi kerak bo'lgan muammolar to'laligicha tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – Toshkent: "O'zbekiston", 2007. — B.36.

SHuningdek, ko'pgina nodavlat notijorat tashkilotlar faqatgina davlat qo'llab-quvvatlashi (grant, subsidiya, ijtimoiy buyurtma) asosidagina faoliyat yuritmoqda, moliyaviy muammolar yechimining boshqa yo'llarini, mablag' jalb qilishning usullarini amalga kiritish va bu boradagi huquqiy asoslarni takomillashtirish zarurati kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi milliy qonunchilik, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish talablariga moslashtirish borasida muhim qadam bo'ldi. Ushbu konsepsiya davlatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish barobarida milliy qonunchiligimizni shu yo'nalishda isloh etish uchun muhim zamin hozirlaydi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida qayd etganidek, "Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda"<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz Prezidentining bu so'zlari fuqarolik jamiyati institutlarini, jumladan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini yanada rivojlantirish sohasidagi dolzarb vazifa va muammolarni aniq ko'rsatib berdi. SHuningdek, davlatning nodavlat notijorat tashkilotlariga o'tkazilgan va o'tkazilishi rejalashtirilayotgan vazifalari tizimi, ushbu vazifalarni amalga oshirish mexanizmi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini hozirgi zamon talablariga uyg'unlashtirgan holda bu sohadagi munosabatlarni tartibga solishning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – B.42.

huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining kengashi va Oliy Majlisi Senati kengashining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008 yil 3 iyuldagi qo'shma qaroriga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mustaqil hamda demokratik tamoyillarga asoslangan tizimi yaratildi. Demak, nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat granti, davlat subsidiyasi va davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratishning huquqiy asoslari o'zgarganini hisobga olgan holda ko'plab tahlil etish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham tadqiqot mavzusining o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini faqatgina yirik nodavlat notijorat tashkilotlari emas, balki davlat tomonidan beriladigan topshiriqni bajarishga qodir tashkilotni ochiq tanlov asosida tanlab olish mumkin bo'lgan huquqiy asosni takomillashtirishning zarurligi bilan bog'liq holatlar mazkur tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Nodavlat notijorat tashkiloti atamasi ko'plab tushunchalar ifodalansa-da, hozirda uchinchi sektor atamasi keng qo'llanilayotganligini qayd qiliishlozim. Barcha bu turdagi tashkilotlar uchun tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan umumiy xususiyatlar mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, tashkiliy jihatdan mustahkam tizimga ega bo'lishlik; ikkinchidan, davlatdan ajratilganlik; uchinchidan, o'zining muassislari yoki rahbarlari orasida foydani taqsimlamaslik; to'rtinchidan, o'z-o'zini mustaqil boshqarish; beshinchidan, ixtiyoriylik.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tarixiy jarayonlarda vujudga kelishi bog'liq ta'rif va xulosalarini ilmiy tahlil qilish asosida bu turdagi tashkilotlarning vujudga kelish asosini ochib berish mumkin. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarning uchinchi sektor tizimidagi xususiyatlari qayd etilib, bu tushunchaga nisbatan keng va tor ma'nodagi ta'riflari mavjud. Nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanish tarixini o'rganish jarayonida ko'proq homiylik asosida tashkilotlar vujudga kelganini, homiylik negizida esa, albatta, ijtimoiy jihatdan

nochor aholini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash g'oyasi mavjudligini hisobga olgan holda nodavlat notijorat tashkilotlarning paydo bo'lishida ijtimoiy sabab muhim o'rin tutishini ta'kidlash mumkin. Uchinchi sektor rivojlanishiga oid dunyo tajribasini umumlashtirilib, bir tomondan u fuqarolarni yagona g'oya asosida birlashtirib, o'z-o'ziga yordam ko'rsatishni tashkillashtirsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat boshqaruv organlarini jalb etishga xizmat qilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqildi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik tizimini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar; 2) O'zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan normalar; 3) O'zbekiston Respublikasining qonunlari: a) universal tipdagi qonunlar; b) maxsus tipdagi qonunlar; 4) qonun osti hujjatlari; 5) xalqaro hujjatlar. Jamoat birlashmalari to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining huquqiy asosi bo'lishini hisobga olgan holda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritishi va tashkil etilishining konstitutsiyaviy tamoyillari bilan bog'liq normalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57–moddasida belgilangan qoidalar asosida quyidagicha tasniflanadi: a) konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'ymaslik; b) respublika suvereniteti, yaxlitligi, xavfsizligi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiqmaslik; v) urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilmaslik; g) xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilmaslik; d) harbiylashtirilgan birlashmalarni tuzmaslik. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlovchi qonunlarning qabul qilinishi: birinchidan, bu birlashish erkinligining mavjudligini anglatadi; ikkinchidan, hurfiylikni kengaytirishni nazarda tutadi; uchinchidan, ijtimoiy barqarorlik va qonunlarga rioya etilishi ta'minlanadi; to'rtinchidan, samarali faoliyat yuritishga turtki bo'ladi; beshinchidan, bozor iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti va jamoat birlashmasi tushunchalari aynan bir xil ma'noda qo'llanilishi yoki ular o'rtasida farq mavjudligi to'g'risidagi masalaga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Lekin bugungi kunda bu borada olimlar orasida yakdil fikrga kelinmaganligini hisobga olib, ayrim e'tiborga molik jihatlarni keltirib o'tgan holda, jamoat birlashmasi tushunchasi nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasidan oldinroq paydo bo'lganligini, jamoat birlashmasi tushunchasining keng mazmunga egaligini Asosiy qonunda, qonunlarda, shuningdek ko'plab qonun osti hujjatlarida jamoat birlashmasi tushunchasi ko'p qo'llanilgani bilan izohlab ko'rsatish mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasini kengroq huquqiy va ilmiy ma'noda tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dissertant yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda har ikkala tashkilotlarning o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchi, nodavlat notijorat tashkiloti siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi bo'la olmasligi; jamoat birlashmasi asosan ommaviy huquqda siyosiy huquqlarga tegishli bo'lgan birlashish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirilishini ta'minlaydi<sup>2</sup>, shuningdek jamoat birlashmasi turi hisoblangan siyosiy partiya mamlakat siyosiy hayotida o'z vakillari orqali ishtirok etadi (m: Bolgariyada nosiyosiy birlashmalar siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi, bu uchun partiyalar tashkil etiladi).

Nodavlat notijorat tashkilotlarini ham konstitutsiyaviy birlashish huquqini amalga oshirishning bir shakli sifatida aytib o'tish mumkin. Zero, konstitutsiyaviy birlashish huquqi boshqa huquqlar singari juda kata ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ahamiyat kasb etib, «insonning hayotiy faoliyatidagi maqsadlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutishini» alohida ta'kidlab o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyatdagi vazifalarini o'rganib tadqiq qilgan olimlar S.Jo'rayeva, A. Gonorskaya<sup>6</sup>, SH.Nazarov<sup>1</sup>lar asosan bu borada umumiy va asoslantirilgan fikrlarni berib o'tadilar.

---

<sup>1</sup> Qarang: Gonorskaya A. V. Obespecheniye zanyatosti trudovыx resursov Respubliki Uzbekistan s ispolzovaniyem potentsiala negosudarstvennyx nekommercheskix organizatsiy (na primere jenskoй zanyatosti):



S.Jo'rayeva fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko'proq siyosiy-huquqiy jihatiga e'tibor qaratadi. SHuningdek, tadqiqotchi S.Jo'rayevaning fuqarolik jamiyati institutlarining «jamiyatdagi nizolarni hal qiluvchi institut vazifasini o'tash» borasidagi fikrlari biroz noaniq ifodalanganini, aynan qaysi turdagi nizolarni nodavlat notijorat tashkiloti hal etishi mumkinligi masalasi ochiq qoldirilganligini e'tiborga olib, iqtisodiy nizolarni hal qilish uchun qonun hujjatlariga muvofiq hakamlik sudlarini tashkil etish orqali Savdo-sanoat palatasi hal qilsa, kasbiy nizolarni kasaba uyushmalari o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqishi mumkinligini aytib o'tadi.

A.V.Gonorskaya nodavlat notijorat tashkilotlarining ko'proq moliyaviy vazifalariga etibor qaratib, «chet el donorlaridan mustaqil» bo'lishlari lozimligini, shuningdek faoliyat yuritish chegarasini «yirik shaharlar chegarasida, qishloq tumanlarida faollashtirib kengaytirishni» nazarda tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifalari borasida mutaxassis SH.Nazarovning fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jamoatchilik tashkilotlarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rnini belgilovchi jihatlar to'g'risida to'xtalar ekan, ko'proq huquqiy nuqtai nazardan qonuniy asoslashga harakat qilgan.

Bu borada aholi o'rtasida bugungi kunda mavjud muammolar yuzasidan ularning fikrini o'rgangan holda nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyatda amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalarini quyidagicha tasniflashga harakat qildik: 1) ekologik muammolarni hal qilish borasidagi vazifalari; 2) inson huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish borasidagi vazifalari; 3) sog'liqni saqlash borasidagi vazifalari; 4) ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish borasidagi vazifalar 5) o'z faoliyatini takomillashtirish borasidagi vazifalari. Nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning yana bir o'ziga xos jihati hisoblangan fandraining (bu nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini moliyaviy ta'minlash uchun mablag'larni jalb etishning turli uslub va vositalari yig'indisi)ni amalga oshirish jarayoni, bu borada mavjud muammolar va muammolarning

---

Dis....kan.ekon.nauk. – Toshkent, 2002. – S.118. Nazarov SH.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli(nazariy va huquqiy masalalar):Avtoref.dis. ... yurid.fan nom.. – Toshkent, 2009.-B.17.

yechimini asoslantirilgan tavsiya va xulosalari berish mumkin. Ularning jamiyatda mavjud muammolar tizimidan kelib chiqib o'ziga xos yechimini berish lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining turli xil hamkorlik shaklini qo'llash amaliyotining kengayishi, jumladan, grant, subsidiya va ijtimoiy buyurtmaning qo'llanishi ijtimoiy siyosatning bu sohasida amalda bo'lgan va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni va huquqni qo'llash jarayonini o'rganishni talab qiladi. Grantga berilgan ta'riflarni umumlashtirib nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qo'llanishi nuqtai nazaridan ta'rif berish mumkin: grant ajratuvchi sub'ektlar tizimi, o'ziga xos jihatlari va tanlov o'tkazish jarayonining bosqichlari o'rganilib, tahlil qilingan. Grant ajratish tartibi bo'yicha xorij tajribasi o'rganilib, bu borada grant tizimini samarali amalga oshirilishi cheklashi mumkin bo'lgan ba'zi bir omillar aniqlanib, jumladan, grant olish talablari to'g'risidagi va moliyalashtirish imkoniyatlari borligi to'g'risidagi ma'lumotning yetarli darajada ommaga yetkazilmasligi (Slovakiya, Ruminiya); grant taqsimlashning aniq qoidalarining yo'qligi (Bosniya, Serbiya, Slovakiya, Makedoniya); grant olishga da'vogar nomzodlarni tanlov jarayonining yetarli darajada ochiq emasligi (Slovakiya, Ruminiya, CHexiya); moliyalashtirilgan dastur natijalari monitoringining batafsil emasligi (Slovakiya) bilan bog'liq muammolarning yechimi mamlakatimizdagi ushbu sohadagi holatlar bilan qiyoslab tahlil etish lozim.

O'zbekistonda davlat subsidiyasi ajratilishining normativ huquqiy asosi va bu sohadagi xorij tajribasi, shuningdek, subsidiya ajratish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlariga subsidiya ajratishning o'ziga xosligi: 1) subsidiya sifatida faqatgina pul vositalari emas, balki boshqa ko'rinishdagi mol-mulk berishning mavjudligi; 2) alohida sub'ektlarning mavjudligi; 3) subsidiya tashkilotlarni moliyalashtirish masalasini hal qilibgina qolmay, nodavlat notijorat tashkilotning chet eldan oladigan yordami hajmini qisqarishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Davlat ijtimoiy buyurtmasining huquqiy asoslari o'rganilishi barobarida mamlakatimizda 20 yil davomida qo'llanib kelinayotgan davlat xaridlari bilan

o'zaro farqli va bog'liq jihatlari tadqiq etilgan. Davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish mexanizmini shakllantirishda davlat xaridlarining metodologik va huquqiy asoslaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib jumladan, ushbu muammolar sirasiga nodavlat notijorat tashkilotlarining yetarli mablag'ga ega emasligi, ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish mexanizmining to'la shakllanmaganligi, huquqiy asosning mavjud emasligi, ijtimoiy buyurtmani bajarish uchun yetarli kadrga ega bo'lmasligi, shuningdek, ko'ngillilar xizmatining nisbatan kamligidir.

Davlatning ayrim vazifalarini nodavlat notijorat tashkilotlariga o'tkazilishi va bu jarayonga qo'yiladigan talablarga e'tibor qaratish lozim. Davlatning ayrim vazifalarini nodavlat notijorat tashkilotlariga o'tkazilishi jarayonini ham o'rganib, shuningdek bugungi kunda olimlar tomonidan qo'llanilayotgan atamalar «nomarkazlashtirish», «fuqaroviy boshqaruv», «ommaviy autsorsing» kabilarni ham tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Davlatning ayrim vazifalari ikki yo'nalishda ya'ni, birinchi yo'nalishda mahalliy ahamiyatga molik "ma'muriy vazifalar" fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazilish jarayoni bo'lsa, ikkinchi yo'nalishni ijro hokimiyati organlari tizimiga tegishli vazifalarning huquqiy tabiati saqlanib qolgan holda maxsus qonunlar bilan faoliyati tartibga solinadigan nodavlat notijorat tashkilotlariga o'tkazilishi bilan izohlab, har ikkala yo'nalishning bir-biri bilan bog'liq jihatlari qatorida farqli tomonlari bordir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga davlatning ayrim vazifalarini o'tkazish uchun "alohida qonun" ishlab chiqish zarurati mavjudligi ta'kidlangan bo'lsa-da, lekin hanz bunday qonun mavjud emas. Lekin davlatning ayrim vazifasini bajarayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar uchun maxsus qonunlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi «Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi Qonunlari amal qilmoqda. Ularni o'zaro bog'liqligini, har ikkalasi ham davlatga tegishli bo'lmagan tashkilotlar qatoriga kirishida, nodavlat

notijorat tashkilotlariga nisbatan fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining davlatning ayrim vazifalarini o'tkazish jarayoniga qo'yiladigan talablarni qo'llash mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solish jarayoniga differensial yondashuv avvalo, bu o'zgacha tarzda ifodalangan yondashuv bo'lib bunda ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, kishilarning o'z ehtiyojlarini o'zi qondirishga xizmat qiladigan tashkilot sifatidagi xususiyatlarini nazarda tutish lozim. SHuningdek, ijtimoiy sheriklikning amaliyotda mavjud shakllarini, bu sheriklikni yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosalarni ko'rsatib, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zaro hamkorligining samaradorligi to'g'risida ham mulohazalar bildirish lozim.

## Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi milliy qonunchilik, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish talablariga moslashtirish borasida muhim qadam bo'ldi. Ushbu konsepsiya davlatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish barobarida milliy qonunchiligimizni shu yo'nalishda isloh etish uchun muhim zamin hozirlaydi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida qayd etganidek, "Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda"<sup>1</sup>.

Bitiruv malakaviy ishimizda tahlil etilgan muamolar va ularning yechimi buyicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Fuqarolik jamiyati – bu yuksak fazilatlarga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo'ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatlarida keng ishtirok

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – B.42.

etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning *jamoatchilik nazorati* o'rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturi asosida davlatning ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish jarayoni kechmoqda.

2. Jamoat tashkilotlari jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhleri ana shu manfaatlarning ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni yetkazib berib turishi mumkin.

3. Jamoat tashkilotlarning funksiyalari turli-tumandir. Lekin ularning asosiy funksiyalaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini artikulyatsiya qilishdir. Manfaatlar guruhleri individlarning turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarning bir tizimga keltiradi, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilot harakat dasturining shakllanishiga yordam beradi. Guruhlar a'zolarining ayrim olingan manfaatleri siyosiy jarayonlarga manfaatdor guruhlar vositasida aniq, bir tizimga solingan talablar tarzida tatbiq etiladi.

4. O'zbekistonda siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar

va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

5. Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini** tilga olish o'rinlidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi prinsiplar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi".

6. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xizmat qilayotgan qonunlardan quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonun va "Homiylik to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun

7. Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini

muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

8. Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi ancha tez shakllantirilmoqda, ularning soni va sifati ortmoqda, turlari va ixtisoslashishlari kengaymoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlangan demokratik davlatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarini ta'minlashda davlat organlari va tijorat tuzilmalarining sherigi deb ataluvchi o'rnini yanada dadil egallamoqdalar. O'z mahallalarida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashdan tortib to ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi yirik miqyosli davlat va xalqaro loyihalarda ishtirok etishgacha, manfaatlari bo'yicha birlashish, jamiyatda muayyan ijtimoiy va kasbiy qatlamlarning qonuniy huquqlarini himoya qilishdan mamlakatimizning ochiqligi, umumjahon insoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish maqsadida nodavlat darajada xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashgacha bo'lgan juda keng sohalar – bularning hammasi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat sohasidir.

9. Nodavlat notijorat tashkiloti atamasi ko'plab tushunchalar ifodalansa-da, hozirda uchinchi sektor atamasi keng qo'llanilayotganligini qayd qiliishlozim. Barcha bu turdagi tashkilotlar uchun tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan umumiy xususiyatlar mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, tashkiliy jihatdan mustahkam tizimga ega bo'lishlik; ikkinchidan, davlatdan ajratilganlik; uchinchidan, o'zining muassislari yoki rahbarlari orasida foydani taqsimlamaslik; to'rtinchidan, o'z-o'zini mustaqil boshqarish; beshinchidan, ixtiyoriylik.

10. Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqildi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik tizimini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar; 2) O'zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan



normalar; 3) O'zbekiston Respublikasining qonunlari: a) universal tipdagi qonunlar; b) maxsus tipdagi qonunlar; 4) qonun osti hujjatlari; 5) xalqaro hujjatlar.

## Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

### I. Raxbariy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2012. 40 bet.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 –T.: «O'zbekiston», 1996, 50–61-betlar.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. –T.: «O'zbekiston», 1996. 47–57, 327–331-betlar.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T.: «O'zbekiston», 1996, 55–69- betlar.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. T.4. –T .: «O'zbekiston», 1996, 56–84-betlar.
6. Karimov I.A. YAngicha fikrlash, ishlash davr talabi. T.5. –T.: «O'zbekiston», 1997, 249–252-betlar.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. –T .: «O'zbekiston», 1998, 31–124, 353–361-betlar.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T .: «O'zbekiston», 1999, 338–345, 401–404-betlar.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot–pirovard maqsadimiz. T.8. –T .: «O'zbekiston», 2000, 18–38, 83–86, 272–291, 345–351, 462–474, 489–509-betlar.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. –T .: «O'zbekiston», 2001, 105–112, 220–225, 375–385-betlar.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurushmoq kerak. T.10. – T.: «O'zbekiston», 2002, 3–9, 91–110, 282–295, 387–396-betlar.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: «O'zbekiston», 2003, 64–69, 214–247, 266–274-betlar.

13. Karimov I.A. Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.: «O'zbekiston», 2004, 3–31-betlar.
14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005. – 96 bet.
15. Karimov I.A. “O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi”. T. “O'zbekiston”, 2005.
16. Karimov I.A. “Tinch hayot va mamlakat xavfsizligi xalqimizning jipsligi va qat'iy irodasiga bog'liq”. T.12. -T.: O'zbekiston, 2004.
17. Karimov I.A. “O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi”. T.13. –T .: O'zbekiston, 2005. – 448 b.
18. Karimov I.A. «Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat». T.14. –T.: «O'zbekiston», 2006. -280 b.
19. Karimov I A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –T.: O'zbekiston, 2007. -320 b.
20. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.
21. Karimov I. A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida” T.16. – T.: «O'zbekiston», 2008, 368 bet
22. Karimov I. A. “Vatanimizning bosqichma- bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz” T.17. –T .: «O'zbekiston», 2009, -280 bet
23. Karimov I. A. “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari.” T.17. –T .: «O'zbekiston», 2010, 280 bet

24. Karimov I. A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” –T.: «O’zbekiston», 2010, -56 bet.

25. Karimov I. A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O’zbekiston», 2011, -436 bet.

## **II. Normativ huquqiy hujjatlar**

26. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O’zbekiston», 2012 y. 40 bet.

27. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig’ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to’g’risida”gi Qonuni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

28. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

29. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

30. O’zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

31. O’zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

32. O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

33. O’zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

34. O’zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

35. O’zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi Qonuni .// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## **III. Asosiy adabiyotlar**

36. Abdulqosimov H.P., Vahobov A.V., Rahimova D.N., Norboyev B.I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. – T.: TDIU, 2001.
37. Abdulqosimov H.P., Hasanov R.R., Farmonov I. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. T.: TDTU, 2003.
38. Azizxonov A.T, L.P. yefimova Teoriya i praktika stroitelstva demokraticeskogo obshestva v Uzbekistane. –T .: 2005. 372b
39. Aliyev B.A, Xoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2006. 192 b.
40. Alimov R.M. sentralnaya Aziya: obshnost interesov. – T.: «SHarq» 2005.-464s
41. Axmedov D., G'ofurov Z. Mahalla noyob milliy qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2005. - 112 b.
42. Boydadayev M. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari. – T.: Akademiya, 1999. – 184 b.
43. Gadoyboyev A. Obod mahalla–adolatli, demokratik jamiyat tayanchi. Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2003. № 1.
44. Gadjiyev K.S. Politicheskaya nauka: Uchebnoye posobiye. 2-e. M., Mejdunarodnqe otnosheniya. 1995.
45. Devid Bitem, Kevin Boyl. Demokratiya: 80 savolga 80 javob. – T .: 2001.
46. Jalilov SH. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot. T.: «O'zbekiston», 2001.
47. Jalilov SH. Davlat hokimiyatining mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolar.–T.: O'zbekiston, 1994. –192 b.
48. Jo'rayev N. YAngilanishlar konsepsiyasi yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. – T.: Ma'naviyat. 2002. – 80 b.
49. Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. – T.: «SHarq», 1998.

50. Zokirov S. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – T.: «Mehnat», 1999.
51. Idivov U. O'zbekiston: zamonaviy demokratlashuv jarayonlarining konseptual asoslari. – T.: Tibbiyot, 1997. –168 b.
52. Islomov Z. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. –T.: O'zbekiston, 2005.-264 b.
53. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi – O'zbekiston taraqqiyotining kafolati. T.: «Adolat», 2000.
54. Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. – T.: «O'zbekiston», 1998.
55. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahririda. – T.: «SHarq», 1998.
56. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – T.: 2000.
57. Mirxamidov M. O'zbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida. – T.: SHarq, 2003. –272 b.
58. «Nodavlat, notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga sharhlar. – T.: 2002.
59. Otamurotov S., Quvvatov N. Kuchli davlatdan-kuchli jamiyatga: Oliy o'quv yurtlar uchun O'quv qo'llanma (mualliflar jamoasi). Istiqlol, demokratiya fuqarolik jamiyati. –T.: 2003.
60. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «YAngi asr avlodi», 2004. – 256 b.
61. Raxmonov R., Abdullayev N. Mahalla: o'z-o'zini boshqarishning huquqiy kafolati. – T.: Mehnat, 1999. –72 b.
62. Rahimov I va boshqalar. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. T.: «Universitet», 2001. – 272 b.
63. Sotsialnyy monitoring 2003. Ekonomicheskii rost i bednost. Vneshniy gosudarstvennyy dolg. Analiticheskiy material: YUNISEF, 2003.

64. Saidov A. Grajdanskoye obshestvo, nepravitelstvennyye organizatsii i zakon. Opyt Uzbekistana. – T.: Rol sentra Respubliki Uzbekistan po pravam cheloveka, 1998. – 219 s.
65. Fayzullayev A. Inson, siyosat, boshqaruv. – T.: O'zbekiston, 1995. – 207 b.
66. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq me'rosi, 1993. – 224 b.
67. Fromm E. Begstvo ot svobody. – M.: «Progress», 1989.
68. Xusanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. – T.: SHarq, 1996. – 92 b.
69. SHarifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyati. – T.: «SHarq», 2003.
70. Ergashev I. Qishloq siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tizimida (Siyosiy-falsafiy tahlil). – T.: «SHarq», 1998.
71. Ergashev I., SHaripov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. – T.: «Akademiya», 2002.
72. YUnusov X. O'zbekiston: siyosiy islohotlar va jahon tajribasi. – T.: SHarq, 2002. – 163 b.
73. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirish asosi. – T.: O'zbekiston, 2003. – 517 b.
74. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi To'plovchilar: V.T.Abdullayev, A.V.Tyo, YU.YA.Semenko, R.SHog'ulomov, K.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida. – T.: «O'zbekiston», 1992.
75. O'zbekiston Respublikasining oila kodeksiga sharhlar. – T.: «Adolat», 2000.
76. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. – T.: «O'zbekiston», 1992.
77. O'zbekiston yuksalish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 2001.
78. O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. – T.: Akademiya, 2005. – 640 b.

79. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi ma'ruzalarining qisqacha bayoni.-T.: 1998. 123 b
80. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlari yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –T .:”Iqtisodiyot”, 2010, 144 bet
81. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” o'quv fanidan o'quv-uslubiy majmua. – T.: «Tiu», 2007. – 120 b.
82. O'zbekiston besh yil demokratiya va bozor islohotlari yo'lida. – T.: SHarq, 1996. – 298 b.
83. O'zbekiston demokratik islohotlar: yakunlari, muammolar, vazifalar. – T.: O'zbekiston, 1996. – 372 b.
84. O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. – T.: SHarq, 2003. – 344 b.
85. Qodirov A. Siyosat falsafasi. – T.: 2005. – 122 b.
86. Qirg'izboyev M. O'zini-o'zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining asosi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003, №1.
87. G'ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. – T.: «Adolat», 2003.